

**XALQARO NORDIK UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEKISTON — 2030” STRATEGIYASINI  
AMALGA OSHIRISH YO‘NALISHLARI VA  
ISTIQBOLLARI YOSHLAR NIGOHIDA»  
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIY-  
AMALIY KONFERENSIYA**

**Toshkent – 2024**



<b>Dilshodova D.D.</b> O'quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantirish va bilimlarni o'zlashtirishda interfaol o'qitish usullarning o'rni .....	96
<b>Rustamov Sh.Sh.</b> Talabalar innovatsion kompetenligini rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik asoslari.....	100
<b>Sherqo'ziyeva D.A., Umarova Z.A.</b> Logopedik mashg'ulotlar uchun foydali onlayn platformalar.....	104
<b>Rustamova M.I., Umarova Z.A.</b> Maxsus pedagogika va inklyuziv ta'limda innovatsion ta'lim texnalogiyalarining o'rni va ahamiyati .....	106
<b>Umarova Z.A.</b> O'zbekiston – 2030 strategiyasini amalga oshirishda talabalar mustaqil tayyorlarligini rivojlantirish masalasi .....	109
<b>Abdugafforova N.F.</b> Exploring the role of motivation in english language learning .....	112
<b>Safarova Z.</b> Case method in teaching pedagogical approach.....	115
<b>Валиева Н.З.</b> Роль женщин в науке как фактор повышения научного потенциала в новом Узбекистане.....	118
<b>Usmonov M.T.</b> Technology using robotrack IDE Software .....	121
<b>Marasulova D. N., Tilonboyeva D.Q.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tillarini o'rgatishning lingvopsixologik xususiyatlari.....	124
<b>Maxmudaliyeva M. M., Shodmonov R.G'.</b> Xalqaro grantlar yutish va ularning ahamiyati .....	128
<b>Rahmatullayeva M., Shodmonov R.G'.</b> BMT tashkiloti va uning dunyo hamjiyatidagi ro'li.....	135
<b>Nasrillayeva M.A., Shodmonov R.G'.</b> Topik haqida tushuncha.....	138
<b>Asqarova F., Shodmonov R.G'.</b> Ko'p tillarni o'rganish haqida.....	141
<b>Iskandarova N.Q., Shodmonov R.G'.</b> Bilingualismning afzalliklari: ikki yoki undan ko'p tillarni bilishning insonning kognitiv va kulturologik ko'nikmalari bo'yicha .....	143
<b>Erkinova R. E., Shodmonov R.G'.</b> Yangi tilni o'rganish metodikasi .....	146
<b>Shukurova M.Z., Shodmonov R.G'.</b> Yunesko:tashkil topishi va istiqboli .....	148
<b>Omondullayeva D., Shodmonov R.G'.</b> Til o'rganish va turizm.....	152
<b>Norimbatov D.Q., Shodmonov R.G'.</b> IELTS and TOEFL: similarities and differences sides.....	155
<b>Xoliqberdiyeva M.A., Shodmonov R.G'.</b> Nega yoshlarimiz ielts va cefr olishga intilmoqdalar? .....	160
<b>G'anijonova D. G', Shodmonov R.G'.</b> Hozirgi vaqtida yoshlar nega sat imtihonini topshirib, xorijda o'qishni xohlayabdi? .....	163

Xulosa qilib aytganda ushbu sertifikatlar ingliz tilini qay darajada bilishligni aniqlab beradi. Shu qatorda bu sertifikatlar juda ko‘p imkoniyatlarga ega. Faqat sertifikatga ega bo‘lgandan so‘ng uni tog’ri maqsadda qo’llash lozim. Sertifikatga ishonib ham qolmaslik lozim. Sertifikat hayotimizni o‘zgartirmaydi, shunchaki maqsadimiz yo‘lida qilayotgan harakatimizga turtki bo‘ladi holos.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:**

1. Sabirov, K. (2024). Econometric modeling of development trends in the food industry. Nordic\_Press, 1(0001).
2. Nusratovich, S. K., & Asidakhan, A. (2023). STRATEGY FOR THE DEVELOPMENT OF FREE ECONOMIC ZONES IN UZBEKISTAN. QO’QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 7-10.
3. Nusratovich, S. K., & Khurshidbek, T. (2023). RELATIVE IMPORTANCE OF FACTORS AFFECTING SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF SMALL BUSINESS. Science and innovation, 2(Special Issue 14), 788-794
4. <https://www.dfavo.com/blog/academic-ielts-2022-data/>
5. <https://kun.uz/uz/news/2019/06/27/nega-yoshlar-ielts-olishga-intilmoqda>
6. <https://uz.wikipedia.org/wiki/TOEFL>
7. <https://oliygoh.uz/post/toefl-vs-ielts>
8. <https://uzinterbiz.com/chet-tili/ingliz-tili/ielitsga-tayyorlanish/.html>

## **HOZIRGI VAQTDA YOSHLAR NEGA SAT IMTIHONINI TOPSHIRIB, XORIJDA O’QISHNI XOHLAYABDI?**

**G’anijonova Diyora G’ayratjonovna<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo’nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G’olib o’g’li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bugungi kunda eng dolzarb mavzulardan biri bo‘lgan ya’ni chet tillarining yoshlar orasida ommalashib borishi, bugungi kunga kelib ingliz tilini dunyo bo‘yicha qancha odam bilishi, SAT imtihoni va topshirilish bosqichlari, imtihondan yuqori ball olgan yoshlarda xorijda o’qish istagi paydo bo’lishi haqida va SAT imtihoni qanday imkoniyatlarga ega ekanligi to’grisida batafsil yoritib beriladi.

**Kalit so’zlar:** Chet tillari, SAT, AQSH, SAT imtihoni, ingliz tili, xorijiy universitetlar, test turlari, College Board, ACT.

Bugungi kunga kelib, yoshlar o'rtasida chet tillarini o'rganish va xorijdag'i universitetlarda tahsil olish jadallahib bormoqda. Chet tillarini orasida ayniqsa, ingliz tili eng ko'p tarqalgan til hisoblanadi, chunki bu til xalqaro muloqot uchun ko'p foydalanilgan tildir. Ingliz tilida so'zlashuvchilar soni 2019 - yil holatiga ko'ra taxminan 1,5 milliard kishini tashkil etadi. Ta'kidlash joizki, ularning aksariyati uchun ingliz tili ona tili emas, balki ikkinchi tildir. Yuzta davlat kiritilgan ro'yxatda O'zbekiston 95-pog'onadan joy olgan. O'zbekistonliklar yuz ballik testdan o'rtacha 43,18 ball olishgan.<sup>22</sup> Ingliz tilini bilish darajasini belgilovchi testlar talabalarga AQSH, Kanada, Buyuk Britaniya ya'ni barcha birinchi tili ingliz tili bo'lган mamlakatlarda tahsil olish imkonini beradi. Ingliz tili testlarining dunyo bo'ylab tan olinadigan IELTS, TOEFL, SAT, OET, PTE va GPA turlari mavjud.

Bu test turlarining orasida SAT imtihoni ommalashib bormoqda. SAT imtihoni (Scholastic Aptitude Test- akademik baholash testi) imtihoni abituriyentlarning tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini tekshirish uchun o'tkaziladigan imtihon hisoblanadi. SAT imtihoni 1926-yil College Board tominidan tashkil etilgan.

SAT imtihoni ikkita bo'limdan iborat bo'lib, birinchisi matematika va ikkinchisi ingliz tili. Ingliz tili qismida o'quvchilar grammatika, reading comprehension hamda vocabulary bank sinovdan o'tkaziladi. Ingliz tili bo'limida o'quvchilar har biri 27 tadan savoli bo'lган 2 ta 32 minutlik testga javob berishlari kerak bo'ladi. Matematika bo'limida ikkita komponentlardan iborat bitta testdan ya'ni kalkulyator ruxsat berilgan va ruxsat berilmagan qismidan tashkil topgan. Testlarning har birida 22 tadan savoli bo'lган 2 ta 35 minutlik testga javob berishlari kerak bo'ladi Matematika qismi O'zbekiston maktab darsligining 9-10 sinfgacha bo'lган mavzulari geometriya va boshlang'ich statistikaga doir mavzularni qamrab oladi.

SAT imtihonidan ikkita bo'lim ballari olinadi: Dalillarga asoslangan o'qish va yozish va matematika. Bo'lim ballari 200 dan 800 gacha bo'lган shkala bo'yicha hisobot qilinadi va har bir bo'lim balli o'nga karrali. SAT uchun umumiy ball ikkita bo'lim ballarini qo'shish yo'li bilan hisoblanadi, natijada umumiy ballar 400 dan 1600 gacha bo'ladi. Imtihon savollari uch darajada – yengil, o'rta va murakkab bo'lishi mumkin.

To'lov masalasiga keladigan bo'lsak, 60 dollardan 108 dollargacha (qaysi davlatda topshirilishiga qaraladi) to'lanadi.

Dunyodagi barcha universitetlar qabul jarayonida SAT ballaridan foydalanadi. AQSH va 85 ta boshqa mamlakatlardagi 4000 dan ortiq kollej va universitetlar SAT ballaridan foydalanadi.

2023 – yil holatiga ko'ra dunyo bo'yicha 1,9 milliondan ortiq o'rta maktab o'quvchilari SAT ni topshirdilar. Ularning aksariyati o'smirlar va katta yoshlilarni tashkil etdi. Taqqoslash uchun, o'sha yili 1,4 million talaba muqobil standartlashtirilgan test, American College Test (ACT)dan o'tgan.

---

<sup>22</sup> <https://kun.uz/uz/news/2019/12/15/ingliz-tilini-bilish-reytingida-ozbekiston-yuzta-davlat-orasidan-95-orinda-qayd-etildi>

<b>IELTS</b>	<b>10 356</b>	<b>19,9</b> mlrd. so'm
<b>TORFL / TPKN</b>	<b>2408</b>	<b>2,8</b> mlrd. so'm
<b>SAT</b>	<b>1023</b>	<b>1,1</b> mlrd. so'm
<b>TOPIK</b>	<b>127</b>	<b>31,2</b> mln. so'm
<b>GMAT</b>	<b>39</b>	<b>105,6</b> mln. so'm
<b>TOEFL</b>	<b>38</b>	<b>782,2</b> mln. so'm
<b>HSK</b>	<b>17</b>	<b>28,3</b> mln. so'm
<b>JLPT</b> 日本語能力試験	<b>15</b>	<b>4,5</b> mln. so'm
<b>GRE</b>	<b>12</b>	<b>26,6</b> mln. so'm
<b>TestDaF</b>	<b>11</b>	<b>13,1</b> mln. so'm
<b>TYS</b>	<b>28</b>	<b>24,7</b> mln. so'm
<b>CAE CPE BEC</b>	<b>10</b>	<b>20,9</b> mln. so'm
<b>GOETHE - ZERTIFIKAT</b>	<b>12</b>	<b>16,2</b> mln. so'm
<b>delf dalf</b>	<b>5</b>	<b>5</b> mln. so'm
<b>ACTFL</b> Language Connects	<b>1</b>	<b>750</b> ming so'm
<b>ALPT, APT, E-TOEFL</b>		

## 1-rasm. O'zbekiston Yoshlar masalalari agentligi tomonidan xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha imtihon xarajatlari to'lab berildi

2021-yildan buyon O'zbekiston Yoshlar masalasilari agentligi tomonidan 18 turdag'i xalqaro imtihon tizimlari bo'yicha imtihonlar xarajatlari uchun 24,4 milliard so'm kompensatsiya to'landi. Yoshlar tomonidan 15 turdag'i kompensatsiya olish uchun arizalar berilgan. Biz bu rasmdan shuni ko'rishimiz mumkinki, SAT imtihonlarida qatnashib, yuqori natijalarga erishgan 1049 nafar abituriyent test to'lovlarini qaytarib oldilar.

SAT ni har yili AQSH da 7 marta va AQSH dan tashqarida 6 marta topshirish mumkin. Ro'yxatdan o'tish sayt orqali amalga oshiriladi hamda test sinov jarayonlari College Board tomonidan belgilangan joylarda o'tkaziladi.

SAT imtihonini topshirish orqali talabalarga juda ko'p imkoniyatlar beradi:

### a) GPA balansi

Agar maktabda ma'lum bir sabablarga ko'ra baholaringiz, ya'ni GPA (Grade Point Average) past bo'lsa, SAT imtihonidan olingan yuqori ball sizni potensialingizni ko'rsatishi mumkin.

### b) Xalqaro imkoniyatlar

SAT imtihonini butun dunyo bo'ylab 4000 dan ortiq universitetlar, jumladan, O'zbekistonda ham bir necha universitetlar qabul qiladi. Dunyo miqyosida tan olingan muhandislik, tibbiyat, menejment, gumanitar fanlar san'at kabi yo'naliislarning ixtiyoriy birida faqatgina SAT imtihonini topshirish orqali o'qish imkoniyatiga ega bo'lishingiz mumkin.

### c) Stipendiya yoxud scholarship

AQSH universitetlariga topshirish jarayonida sizning har bir qilgan va yozgan ishingiz muhim rol o'ynaydi. Bakalavriatda o'qish uchun to'liq moliviy yordam (kontrakt summasi, turar joy va oziq-ovqat xarajatlarini qoplash) taklif etadigan Stenford universiteti ham abituriyentlardan SAT yoki ACT sertifikati topshirishni talab qiladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni aytish mumkinki, talabalar sifatli va hamma xalqaro standartlarga mos keladigan ta'lim dasturida o'qishni xohlovchilarga eng to'g'ri yo'l bu AQSH universitetlari hisoblanadi. Chunki, hozirgi

vaqtida AQSHda juda ko'p nufuzli universitetlar joylashgan va yana chet tillarini o'rGANISH orqali juda ko'p imkoniyatlarga ega bo'lismiz mumkin. Ya'ni xalqaro imtihonlardan yuqori ball to'plagan talabalarga xorijdagi nufuzli universitetlar grand asosida o'qishni taklif qiladi.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://kun.uz/uz/news/2019/12/15/ingлиз-tilini-bilish-reytingida-ozbekiston-yuzta-davlat-orasidan-95-orinda-qayd-etildi>
2. [https://www.google.com/search?q=is+sat+only+valid+in+usa&oq=is+sat+only+valid+in+usa&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCACQI](https://www.google.com/search?q=is+sat+only+valid+in+usa&oq=is+sat+only+valid+in+usa&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIHCACQI)
3. [https://www.google.com/search?q=hiw+many+students+take+sAt+exam+in+2023&oq=hiw+many+students+take+sAt+exam+in+2023&gs\\_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIJCACQIRgKGKABMgkIAhAhGAoYoAEyCQgDECEYChigATIJCAQQIRgKGKAB0gEJMTU1OTFqMGo3qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=U](https://www.google.com/search?q=hiw+many+students+take+sAt+exam+in+2023&oq=hiw+many+students+take+sAt+exam+in+2023&gs_lcrp=EgZjaHJvbWUyBggAEEUYOTIJCACQIRgKGKABMgkIAhAhGAoYoAEyCQgDECEYChigATIJCAQQIRgKGKAB0gEJMTU1OTFqMGo3qAIAsAIA&sourceid=chrome&ie=U)
4. <https://daryo.uz/en/2023/04/27/youth-affairs-agency-reimburses-ielts-fees-of-more-than-10000-uzbek-youngsters>
5. <https://grantlar.uz/blog/sat-imtihoni-nima-qayerda-qachon-qanday/>
6. <https://grantlar.uz/blog/sat-imtihoni-nima-qayerda-qachon-qanday/>
7. SAT Advanced Practise , Kaplan , New York 2017 , 5-6
8. SAT Total Prep 2019 , Kaplan , New York 2018 , 8-9

## TIL VA MARKETING

**Normurodova Sevinch Behzod qizi<sup>1</sup>**

*<sup>1</sup>Xalqaro Nordik universiteti  
Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi  
1-kurs 1-XT-23 guruh talabasi*

**Shodmonov Ruslan G'olib o'g'li<sup>2</sup>**

*<sup>2</sup>Xalqaro Nordik universiteti doktoranti  
[r.shodmonov@nordicuniversity.org](mailto:r.shodmonov@nordicuniversity.org)*

**Annotatsiya:** Ushbu tezisda Marketing haqida umumiy tushunchalar, Xorijiy tillarning bizga qanchalik kerakligi va hayotimizdagi o'rni qay darajada muhimligi, hamda til va marketing o'rtasidagi bog'liqliklar, til va marketingning jamiyatdagi o'rni kabilar yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Marketing, xorijiy tillar, iste'molchilar, madaniyat, qadriyat, munosabat, kompaniya va bozor munosabatlari, globallashuv. <sup>23</sup>

Til va marketing XXI asrda insonlarning eng ko'p e'tiborini tortgan narsa desak adashmagan bo'lamiz. Hozirgi davrda hayotimizda turli tillarni o'rganishga

<sup>23</sup> Globallashuv – <https://wordsbyapro.com>